
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidagi "Qumtepa" mahallasidan ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq muammo yuzasidan yo'llangan murojaat e'lon qilingan edi. Ushbu murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

"Qumtepa" MFY hududida PQ-408 sonli qaroriga asosan yangi suv inshooti qurish va 3,5 km yangi tarmoq tortish ishlari olib borildi. Shuningdek, B.Marg'iloniy ko'chasida ichimlik suvi quvurlari eskirganligi sababli aholiga ichimlik suvi yetkazib berishda muammolar yuzaga kelmoqda. Muammolarni bartaraf etish maqsadida qo'shimcha dasturlar asosida 10,6 km yangi ichimlik suvi tarmog'i tortish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda loyihalash ishlari olib borilmoqda.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-07-24 15:26:40